

BO'LAJAK ONA TILI O'QITUVCHILARINING NUTQIY-LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI ELEKTRON PORTFOLIO ASOSIDA BAHOLASH

Malika ALTIBAYEVA,

ORCID: 0009-0009-5616-936X

O'zbek tili va adabiyot kafedrasida o'qituvchisi,

Toshkent Amaliy fanlar universiteti.

Toshkent, O'zbekiston.

E-mail: malikaaltiboyeva@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak ona tili o'qituvchilarining nutqiy-lingvistik kompetensiyasini baholashda elektron portfoliodan foydalanishning nazariy asoslari, baholash mezonlari hamda metodik imkoniyatlari yoritilgan. Elektron portfolioning talabalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati ilmiy manbalar asosida ochib berilgan, baholash mezonlari tizimlashtirilgan va metodik tavsiyalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** elektron portfolio, nutqiy-lingvistik kompetensiya, baholash mezonlari, refleksiv yozuv, peer-feedback, pedagogik texnologiyalar.*

ASSESSMENT OF SPEECH-LINGUISTIC COMPETENCE OF FUTURE NATIVE LANGUAGE TEACHERS ON THE BASIS OF ELECTRONIC PORTFOLIO

Malika ALTIBAYEVA.

ORCID: 0009-0009-5616-936X

Teacher of the Department of Uzbek Language and Literature,

Tashkent University of Applied Sciences.

Tashkent, Uzbekistan.

E-mail: malikaaltiboyeva@gmail.com

***Abstract.** This article discusses the theoretical foundations, assessment criteria, and methodological possibilities of using electronic portfolios in assessing the speech-linguistic competence of future native language teachers. The pedagogical significance of electronic portfolios in developing students' oral and written speech is described on the basis of scientific sources, and relevant methodological recommendations are presented.*

***Keywords:** electronic portfolio, speech-linguistic competence, assessment criteria, reflective writing, peer-feedback, pedagogical technologies.*

ОЦЕНКА РЕЧЕВОЙ И ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ РОДНОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ЭЛЕКТРОННОГО ПОРТФОЛИО

Малика АЛТИБАЕВА.

ORCID: 0009-0009-5616-936X

Преподаватель кафедры Узбекский язык и литература,

Ташкентский университет Прикладных наук.

Ташкент, Узбекистан.

E-mail: malikaaltiboyeva@gmail.com

***Аннотация.** В статье освещены теоретические основы, критерии оценки и методические возможности использования электронного портфолио при оценивании*

речевой и лингвистической компетенции будущих преподавателей родного языка. На основе научных источников раскрыто педагогическое значение электронного портфолио в развитии устной и письменной речи студентов, систематизированы критерии оценивания и представлены методические рекомендации.

Ключевые слова: электронное портфолио, речевая и лингвистическая компетенция, критерии оценки, рефлексивное письмо, взаимная обратная связь, педагогические технологии.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili o'qituvchisining nutqiy-lingvistik kompetensiyasi uning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Chunki ona tili o'qituvchisi nafaqat til qoidalarini o'rgatuvchi mutaxassis, balki og'zaki va yozma nutq madaniyatining amaliy namunasidir [Mahmudov, 2009].

Raqamli ta'lim vositalari keng qo'llanilayotgan hozirgi sharoitda elektron portfolio bo'lajak o'qituvchilarning o'z faoliyatini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va kasbiy rivojlanish dinamikasini kuzatish uchun qulay vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Elektron portfolio tarkibida refleksiv yozuvlar, tahliliy topshiriqlar, yozma ishlar, audio va video chiqishlar, peer-feedback materiallari jamlanishi mumkin. Shu bois u nutqiy-lingvistik kompetensiyani baholashda nafaqat natijani, balki rivojlanish jarayonini ham ko'rsatib bera oladi [Zhang C. 2023. Rogge T. 2025].

Materiallar va metodlar. Elektron portfolio talabani kasbiy va shaxsiy rivojlanishini aks ettiruvchi raqamli to'plam bo'lib, u muntazam ravishda yangilanib boriladigan ish namunalari, yozma va og'zaki topshiriqlar, refleksiv izohlar hamda o'zaro fikr almashish natijalarini o'z ichiga oladi [7. 8]. Pedagogik nuqtayi nazardan, elektron portfolio quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Refleksiv tahlilni rivojlantiradi. Talaba o'z og'zaki va yozma nutqini kuzatadi, undagi kuchli va sust tomonlarni aniqlaydi, keyingi rivojlanish yo'llarini belgilaydi.

2. Baholashni tizimlashtiradi. Elektron portfolio baholash mezonlarini oldindan belgilash va ularga tayangan holda o'quvchi faoliyatini izchil kuzatish imkonini beradi.

3. Peer-feedbackni qo'llab-quvvatlaydi. Talabalar bir-birining ishlari yuzasidan asosli mulohaza bildirish orqali muloqot madaniyati va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

4. Og'zaki va yozma nutqni parallel rivojlantiradi. Portfolio tarkibiga yozma topshiriqlar, videochiqishlar, audioyozuvlar va refleksiv esse kiritilishi natijasida nutqning turli ko'rinishlari baholanadi [Karim, 2024. Mahmudov, 2009].

Nutqiy-lingvistik kompetensiyaning tarkibiy tuzilishi

Nutqiy-lingvistik kompetensiya shaxsning til birliklaridan to'g'ri foydalanish bilimini (lingvistik komponent) va shu bilimni og'zaki va yozma nutqda maqsadga muvofiq, mantiqiy va kommunikativ jihatdan samarali tatbiq etish qobiliyatini (nutqiy komponent) o'zida birlashtiradi. Mazkur kompetensiya quyidagi to'rt tarkibiy qismga ajratilgan va har biri uchun aniq baholash parametrlari belgilangan:

- til (lingvistik) kompetensiyasi — fonetik, leksik, grammatik va orfografik me'yorlarni bilish hamda ularni nutqda izchil qo'llay olish;

- nutqiy kompetensiya — fikrni og'zaki va yozma shaklda ravon, izchil va tushunarli ifodalash, matn qurish ko'nikmasi;

- kommunikativ kompetensiya — muloqot vaziyatiga mos uslub va nutq vositalaridan samarali foydalanish, auditoriya bilan til topish ko'nikmasi;

- nutq madaniyati — nutqning aniqligi, ravonligi, mantiqiyliigi, uslubiy mosligi va kasbiy etikaga rioya qilish [Mahmudov, 2009].

Bu to'rt komponent o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi: til kompetensiyasi nutqiy faoliyatning normativ asosini, nutqiy va kommunikativ kompetensiya esa uning amaliy ifodasini

tashkil etadi. Shu sababli elektron portfolio asosida baholash nafaqat nutqiy ko'rinishlarni (og'zaki, yozma), balki til me'yorlariga rioya qilish darajasini ham alohida parametr sifatida hisobga olishi lozim.

Natija. Baholash mezonlari, indikatorlari va ularning baholash parametrlari

Yuqorida qayd etilganidek, mezonlarni faqat tasniflab ko'rsatish baholash jarayonini amaliyotda qo'llashni qiyinlashtiradi. Shu sababli har bir mezon endi aniq indikator (kuzatiladigan ko'rsatkich) va uni o'lchash uchun ball asosidagi parametr bilan birga keltiriladi. Har bir indikator 1–3 ball oralig'ida baholanadi (1 — past, 2 — o'rta, 3 — yuqori daraja). Bu baholashni standartlashtirish va obyektivlikni ta'minlash imkonini beradi.

1. Og'zaki nutq mezonlari va indikatorlari

Mezon	Indikator (baholash parametri)	Yuqori daraja (3 ball)	O'rta daraja (2 ball)	Past daraja (1 ball)
<i>Nutq aniqligi va ravonligi</i>	<i>Talaffuz xatolari soni, pauza va to'xtalishlarning nutq oqimiga ta'siri</i>	<i>Nutq erkin, uzilishsiz, talaffuz xatolari kuzatilmaydi</i>	<i>Ayrim uzilishlar va talaffuz xatolari mavjud, ammo umumiy tushunishga xalal bermaydi</i>	<i>Nutqda tez-tez uzilish, takror va talaffuz xatolari kuzatiladi</i>
<i>Fikrning mantiqiy izchilligi</i>	<i>Fikrlar orasidagi bog'lanish, dalillash ketma- ketligi</i>	<i>Fikrlar izchil, dalillangan va xulosaga olib boradi</i>	<i>Fikrlar asosan izchil, ammo ayrim mantiqiy bo'shliqlar mavjud</i>	<i>Fikrlar tarqoq, dalillash yetarli emas</i>
<i>Kasbiy- lingvistik so'zlashuv madaniyati</i>	<i>Kasbiy terminologiyadan o'rinli foydalanish, uslubiy mos so'z tanlash</i>	<i>Kasbiy terminlarni aniq va o'rinli qo'llaydi</i>	<i>Terminlarni qisman to'g'ri qo'llaydi, ayrim uslubiy nomuvofiqlik bor</i>	<i>Kasbiy lug'at zaif, uslubiy xatolar ko'p</i>
<i>Interaktiv muloqotdagi faollik</i>	<i>Muhokamada savol-javobga ishtirok darajasi, fikir almashish tezligi</i>	<i>Muhokamaga faol va asosli ishtirok etadi</i>	<i>Muhokamada ishtirok etadi, ammo tashabbus past</i>	<i>Muhokamada deyarli ishtirok etmaydi</i>
<i>Mavzuni izchil ifoda etish</i>	<i>Nutq tarkibida kirish, asosiy qism va xulosaning mavjudligi</i>	<i>Mavzu to'liq tuzilmaga ega tarzda yoritiladi</i>	<i>Mavzu yoritiladi, ammo tuzilma to'liq emas</i>	<i>Mavzu tartibsiz, tuzilmasiz bayon etiladi</i>

2. Yozma nutq mezonlari va indikatorlari

Mezon	Indikator (baholash parametri)	Yuqori daraja (3 ball)	O'rta daraja (2 ball)	Past daraja (1 ball)
<i>Matn strukturalari va mantiqiyiligi</i>	<i>Kirish-asosiy qism- xulosa nisbati, paragraflar orasidagi bog'lanish</i>	<i>Matn aniq tuzilmaga ega, qismlar mantiqan bog'langan</i>	<i>Tuzilma mavjud, ammo bog'lanish ayrim joylarda uzilgan</i>	<i>Tuzilma yo'q yoki tartibsiz</i>
<i>Til me'yorlariga (imlo, uslub) rioya qilish</i>	<i>1000 so'zga nisbatan imlo/uslub xatolari soni</i>	<i>Xatolar yo'q yoki minimal (1–2 ta)</i>	<i>O'rtacha miqdordagi xatolar (3–5 ta), mazmunga xalal bermaydi</i>	<i>Xatolar ko'p, mazmunni tushunishga xalal beradi</i>
<i>Fikrni aniq va izchil ifodalash</i>	<i>Asosiy g'oyaning aniqligi, dalillarning yetarliligi</i>	<i>Fikr aniq, dalillangan va izchil rivojlangan</i>	<i>Fikr tushunarli, ammo dalillar yetarli emas</i>	<i>Fikr noaniq, dalilsiz bayon etilgan</i>
<i>Refleksiv tahlil elementlarining mavjudligi</i>	<i>O'z xatosini tan olish, sabab-oqibat bog'lanishini ko'rsatish</i>	<i>Chuqur refleksiya, sabab-natija aniq ko'rsatilgan</i>	<i>Refleksiya mavjud, ammo yuzaki</i>	<i>Refleksiv izoh deyarli yo'q</i>

3. Refleksiv mezonlar va indikatorlari

Mezon	Indikator (baholash parametri)	Yuqori daraja (3 ball)	O'rta daraja (2 ball)	Past daraja (1 ball)
<i>O'z faoliyatini tahlil qilish</i>	<i>Kuchli va sust tomonlarni aniq ko'rsata olish</i>	<i>Faoliyatini har tomonlama, dalillar bilan tahlil qiladi</i>	<i>Tahlil mavjud, ammo umumiy xususiyatga ega</i>	<i>Tahlil yuzaki yoki mavjud emas</i>
<i>Xatolarni anglash va tuzatish yo'lini belgilash</i>	<i>Aniqlangan xato uchun konkret yechim taklif etish</i>	<i>Har bir xato uchun aniq yechim taklif etadi</i>	<i>Xatoni aniqlaydi, ammo yechim umumiy tusda</i>	<i>Xatoni tan olmaydi yoki yechim taklif etmaydi</i>
<i>Mustaqil fikrlash va xulosa chiqarish</i>	<i>Shaxsiy pozitsiya va asoslangan xulosaning mavjudligi</i>	<i>Mustaqil, asoslangan xulosalar chiqaradi</i>	<i>Xulosa mavjud, ammo asoslash sust</i>	<i>Xulosa umumlashtirilmagan yoki yo'q</i>

4. Peer-feedback mezonlari va indikatorlari

Mezon	Indikator (baholash parametri)	Yuqori daraja (3 ball)	O'rta daraja (2 ball)	Past daraja (1 ball)
<i>Boshqa talaba ishiga asosli mulohaza bildirish</i>	<i>Mulohazaning aniq misol va dalillarga tayanish darajasi</i>	<i>Mulohaza aniq misollar bilan dalillangan</i>	<i>Mulohaza umumiy, qisman dalillangan</i>	<i>Mulohaza dalilsiz yoki yuzaki</i>
<i>Konstruktiv taklif bera olish</i>	<i>Aniq yaxshilash yo'nalishini ko'rsatish</i>	<i>Amaliy, bajarilishi mumkin bo'lgan taklif beradi</i>	<i>Taklif beradi, ammo aniqlik yetarli emas</i>	<i>Taklif bermaydi yoki mavhum</i>
<i>Muloqot etikasiga rioya qilish</i>	<i>Fikr bildirish uslubining hurmatli va professional ekanligi</i>	<i>To'liq xushmuomala va professional uslubda</i>	<i>Asosan etikaga mos, ayrim qo'polliklar bor</i>	<i>Etika qoidalariga rioya qilinmaydi</i>

Ushbu jadvallardagi indikatorlar talabalarga oldindan tanishtiriladi va har bir portfolio materialini baholashda namuna (referens) sifatida qo'llaniladi. Natijada baholovchi (o'qituvchi yoki tengdosh baholovchi) umumiy taassurotga emas, balki aniq ko'rsatkichlarga tayanadi. Bu baholash obyektivligini sezilarli darajada oshiradi [Zhang C. 2023; Scoupe R. 2024. Rogge T. 20245].

Elektron portfolio asosida baholashni bosqichma-bosqich tashkil etish

Diagnostic bosqich. Mazkur bosqichda talabaning boshlang'ich nutqiy-lingvistik ko'nikmalari yuqorida keltirilgan indikatorlar asosida aniqlanadi. Bunda quyidagi materiallardan foydalanish mumkin:

- og'zaki nutq yozuvlari va videochiqishlar;
- yozma topshiriqlar;
- refleksiv esse va qisqa tahliliy yozuvlar;
- avvalgi ishlarga asoslangan dastlabki tahlil [Zhang C. 2023; Karim A.2024].

Rivojlantirish bosqichi. Bu bosqichda talaba elektron portfolio bilan muntazam ishlaydi. U yozma ishlarini to'ldiradi, og'zaki chiqishlarini joylaydi, refleksiv qaydlar yozadi va peer-feedback jarayonida ishtirok etadi. Har bir material yuqoridagi indikatorlar bo'yicha ball bilan baholanib boriladi. Bu rivojlanish dinamikasini sonli ko'rsatkichlarda kuzatish imkonini beradi. Natijada talaba:

- nutqdagi xatolarni aniqlashni;
- fikrni mantiqiy va izchil ifodalashni;
- mustaqil tahlil yuritishni;
- baholash mezonlariga tayangan holda o'z ustida ishlashni o'rganadi [Scoupe R. 2024; Rogge T. 20245].

Mustahkamlash bosqichi. Yakuniy bosqichda talabaga tegishli portfolio materiallari umumlashtiriladi va oldingi ishlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Diagnostik va yakuniy bosqichlardagi ball ko'rsatkichlari taqqoslanadi, bu esa rivojlanish dinamikasini aniq sonlarda ifodalash imkonini beradi. Bu bosqichda quyidagilar asosiy ko'rsatkich sifatida olinadi:

- og'zaki nutqning rivojlanish darajasi;
- yozma nutqdagi izchillik va savodxonlik;
- refleksiv yozuvlarning mazmuni va chuqurligi;
- peer-feedback jarayonidagi faollik va konstruktivlik.

Muhokama. Refleksiv topshiriqlar. Elektron portfolio yuqoridagi indikatorlar asosidagi refleksiv topshiriqlar bilan uyg'un holda qo'llanganda uning samaradorligi oshadi. Quyidagi topshiriqlar bunda muhim rol o'ynaydi:

Refleksiv esse. Talaba o'z yozma ishini tahlil qiladi, xatolarini belgilaydi va keyingi rivojlanish yo'llarini ko'rsatadi.

Video-refleksiya. Talaba og'zaki chiqishini qayta ko'rib, nutqining aniqligi, ravonligi va muloqot madaniyatini tahlil qiladi.

Peer-feedback topshiriqlari. Talabalar bir-birining ishlarini yuqoridagi mezonlar jadvali asosida baholab, asosli va konstruktiv tavsiyalar beradilar [Scoupe R. 2024; Traga Philippakos Z. A. 2025; Cambridge D. 2010].

Bunday yondashuv nutqiy faoliyatni kuzatish, o'z-o'zini baholash, tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metodik shartlar

Elektron portfoliiodan samarali foydalanish uchun quyidagi metodik shartlarga rioya qilish lozim:

- portfolio materiallari muntazam va tizimli ravishda to'ldirilib borilishi kerak;
- baholash mezonlari, indikatorlari va ball tizimi oldindan ishlab chiqilib, talabalarga aniq tushuntirilishi zarur;
- og'zaki va yozma topshiriqlar o'zaro uyg'unlikda tashkil etilishi lozim;
- peer-feedback yuqorida keltirilgan aniq indikatorlar asosida olib borilishi kerak;
- refleksiv yozuvlar talabaning o'z-o'zini tahlil qilishiga yo'naltirilgan bo'lishi zarur [Scoupe R. 2024, Barrett H. 2010; Cambridge D. 2010].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, elektron portfolio bo'lajak ona tili o'qituvchilarining nutqiy-lingvistik kompetensiyasini – ya'ni til, nutq, kommunikativ va nutq madaniyati komponentlarini birgalikda – baholash va rivojlantirishda samarali metodik vosita hisoblanadi. Maqolada taklif etilgan to'rt yo'nalishdagi mezonlar endi aniq indikatorlar va ball asosidagi baholash parametrlari bilan to'ldirilgani sababli, ular amaliyotga bevosita tatbiq etish imkoniga ega. U og'zaki va yozma nutqni tizimli kuzatish imkonini beradi, refleksiv yozuv va peer-feedback orqali o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi, baholash mezonlari standartlashtirilganda esa obyektivlikni ta'minlaydi. Shuningdek, elektron portfolio talabaning professional rivojlanish dinamikasini diagnostik va yakuniy bosqichlardagi ball ko'rsatkichlari orqali sonli tarzda aks ettirishga xizmat qiladi. Shu bois uni ona tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida aniq mezonlar, indikatorlar va rubrikalar asosida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barrett H. Electronic Portfolios and Digital Storytelling to Support Deep Learning. – Portland: CreateSpace, 2010.
2. Cambridge D. E-Portfolios for Lifelong Learning and Assessment. – San Francisco: Jossey-Bass, 2010.
3. Zhang C., Schießl J., Plöbl L., Hofmann F., Gläser-Zikuda M. Evaluating Reflective Writing in Pre-Service Teachers: The Potential of a Mixed-Methods Approach. – Education Sciences. – 2023. – Vol. 13, No. 12. – Art. 1213. – DOI: 10.3390/educsci13121213.
4. Scoupe R., Delnoij L., Beusaert S. Reflective Practice among Pre-Service Teachers: The Role of Portfolios. – Educational Research. – 2024. – Vol. 66, No. 4. – DOI: 10.1080/00131881.2024.2412642.
5. Karim A., Amin F., Amin E. U. Pre-service TESOL Teachers' Professional-Awareness Building through Reflecting on Reflections of Critical Incidents. – Asian-Pacific Journal of Second and Foreign Language Education. – 2024. – DOI: 10.1186/s40862-024-00254-4.

6. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
7. Traga Philippakos Z. A., Sipitanos K. Pre-Service Teachers' Preparation to Teach Writing Using Genre-Based Strategy Instruction: Reporting Two Cycles of Design-Based Research. – Education Sciences. – 2025. – Vol. 15, No. 6. – Art. 737. – DOI: 10.3390/educsci15060737.
8. Rogge T., Herzig B. Enhancing Pre-Service Teachers' Reflective Competence Through Structured Video Annotation. – Education Sciences. – 2025. – Vol. 15, No. 9. – Art. 1146. – DOI: 10.3390/educsci15091146.